

**BALIQCILIK FAOLIYATINI KENGAYTIRISHDA DAVLAT TOMONIDAN  
IQTISODIY RAG‘BATLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI**

*O.A.Xolmurodov*

*Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar*

*universiteti mustaqil-izlanivchisi*

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada baliqchilik faoliyatini kengaytirishda davlat tomonidan iqtisodiy rag‘batlantirishning nazariy jihatlari tadqiq etilgan. Unda baliqchilik tarmog‘ining qishloq xo‘jaligidagi o‘rni, uning iqtisodiy samaradorligini oshirishda davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati yoritilgan.

Xususan, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari hamda investitsiyalarni rag‘batlantirish vositalarining nazariy asoslari tahlil qilingan.

**Abstract**

This article examines the theoretical aspects of state economic incentives in expanding fisheries activities. It highlights the role of the fisheries sector in agriculture and the importance of state support mechanisms in improving its economic efficiency. In particular, the theoretical foundations of subsidies, concessional loans, tax incentives, and investment promotion tools are analyzed.

**Kalit so‘zlar:**

Baliqchilik, akvakultura, iqtisodiy rag‘batlantirish, davlat qo‘llab-quvvatlashi, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, soliq imtiyozlari, investitsiyalar, samaradorlik, barqaror rivojlanish

**Kirish**

Baliqchilik faoliyatini kengaytirish zamonaviy qishloq xo‘jaligining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, aholi bandligini oshirish hamda eksport salohiyatini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tarmoqni samarali rivojlantirish ko‘p jihatdan davlat tomonidan yaratiladigan iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarining samaradorligiga bog‘liqdir.

Xususan, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari hamda ishlab chiqarish va logistika infratuzilmasini rivojlantirish kabi vositalar baliqchilik tarmog‘ining barqaror o‘shirishini ta‘minlovchi asosiy omillar hisoblanadi. Shu bois, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat ushbu sohada ishlab chiqarish hajmini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishda muhim rol o‘ynaydi.

Mazkur maqolada baliqchilik faoliyatini kengaytirishda davlat tomonidan iqtisodiy rag‘batlantirishning nazariy asoslari, uning iqtisodiy mohiyati hamda amaliy ahamiyati tizimli ravishda tahlil qilinadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 maydagi PQ-2939-son “Baliqchilik tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018 yil 6 noyabrdagi PQ-4005-son “Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2020 yil 29 avgustdagi PQ-4816-son “Baliqchilik tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2022 yil 13 yanvardagi PQ-83-son “Baliqchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarda belgilangan ustuvor vazifalar mazkur tadqiqotning huquqiy asosini tashkil etadi.

**O‘zbekiston Respublikasida baliqchilik ko‘rsatkichlari (2020–2025 yillar)**

Yillar	Aholi soni, (ming kishi)	Aholining yillik iste‘mol talabi, tn.	Haqiqiy etishtirilgan, tn.	Talabning qondirilish darajasi, %	Aholi jon boshiga to‘g‘ri kelishi, kg	Aholi jon boshiga talab etiladi, kg	Baliqchilik xo‘jaliklari soni, ta
2020	33 905,242	542 483,9	144 102,6	27,0	4,2	-11.8	4 050
2021	34 558,891	552 942,3	171 933,0	32,6	5,0	-11	4 110
2022	35 271,276	564 340,40	173 866,0	31,0	5,0	-11	4 230
2023	36 372,301	581 956,80	197 288,0	34,4	5,4	-10.6	5 910
2024	37 543,224	600 691,58	191 400,0	31,8	5,1	-10.9	6 100*
2025	38 750,000*	619 800,00*	205 000,00*	33,1*	5,3*	-10.7*	6 300*

1-jadval

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Respublikasida baliqchilik tarmog'i qishloq xo'jaligining muhim va tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda hamda 2020-yilda mamlakatda faoliyat yuritayotgan baliqchilik xo'jaliklari soni qariyb 4 mingta atrofida bo'lgan bo'lsa, so'nggi yillarda sohaga qaratilgan tizimli islohotlar, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan iqtisodiy rag'batlantirish choralari, jumladan subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi natijasida ushbu ko'rsatkich barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 2025-yilga kelib baliqchilik xo'jaliklari soni 6 mingdan oshib, deyarli ikki barobar ortgani kuzatilmoqda.

Baliqchilik tarmog'ining rivojlanish dinamikasini ifodalovchi ko'rsatkichlar shuni tasdiqlaydiki, 2020–2025 yillar davomida baliq mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish darajasi, ishlab chiqarish hajmi hamda aholi jon boshiga iste'mol miqdori barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda, ya'ni 2020-yilda 144,1 ming tonnani tashkil etgan ishlab chiqarish hajmi 2023-yilda 197,3 ming tonnaga yetib, talabning qondirilish darajasi 27 foizdan 34,4 foizgacha oshgan, aholi jon boshiga iste'mol esa 4,2 kg dan 5,4 kg gacha ko'paygan, 2024–2025 yillarda ham ushbu ijobiy tendensiyaning davom etishi prognoz qilinib, ishlab chiqarish hajmining 200 ming tonnadan oshishi va talabning qondirilish darajasi 33 foiz atrofida shakllanishi kutilmoqda.

Mazkur tahlillar natijalaridan kelib chiqib, baliqchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha bir qator taklif va tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

- intensiv baliqchilik texnologiyalarini keng joriy etish, yuqori mahsuldor zotlarni ko'paytirish hamda zamonaviy inkubatsiya markazlarini tashkil etish orqali ishlab chiqarish hajmini oshirish zarur;

- sifatli va arzon ozuqa bazasini shakllantirish, mahalliy yem ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali tannarxni pasaytirish muhim hisoblanadi;

- baliq mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va tashish bo'yicha sovitish hamda logistika infratuzilmasini takomillashtirish orqali mahsulot yo'qotilishining oldini olish lozim; to'rtinchidan, sohaga ajratilayotgan subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va sug'urta mexanizmlarining samaradorligini oshirish hamda ularning manzilliligini ta'minlash zarur; beshinchidan, baliqchilik xo'jaliklarida raqamli texnologiyalar va monitoring tizimlarini joriy etish orqali boshqaruv samaradorligini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir; shuningdek, ichki bozor bilan bir qatorda eksport salohiyatini

oshirish, marketing va brendingni rivojlantirish, kadrlar malakasini oshirish hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish orqali baliq mahsulotlariga bo‘lgan talabni to‘liq qondirish va tarmoqning barqaror rivojlanishini ta‘minlash mumkin.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, 2020–2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida baliqchilik tarmog‘ida ishlab chiqarish hajmi, aholi jon boshiga iste‘mol darajasi hamda baliqchilik xo‘jaliklari sonining izchil o‘sib borishi sohaning barqaror rivojlanayotganini va uning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashdagi ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi. Amalga oshirilgan islohotlar va iqtisodiy rag‘batlantirish choralari natijasida ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada kengayib, ichki bozorni ta‘minlash imkoniyatlari yaxshilandi.

Shu bilan birga, mavjud natijalarni yanada mustahkamlash uchun intensiv baliqchilik texnologiyalarini keng joriy etish, yuqori samarali ozuqa bazasini rivojlantirish, zamonaviy logistika va sovitish tizimlarini yo‘lga qo‘yish, mahsulotni qayta ishlash darajasini oshirish hamda eksport yo‘nalishlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, sohaga ajratilayotgan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligini oshirish, kadrlar malakasini yuksaltirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali baliqchilik tarmog‘ining raqobatbardoshligini yanada oshirish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-yanvardagi “Baliqchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-83-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-noyabrdagi “Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4005-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Qishloq xo‘jaligi va baliqchilik bo‘yicha statistik to‘plamlar. – Toshkent, 2020–2024.